



## FRANSUZ TILIDA INTONATSIYANING AHAMIYATI

**Yovqocheva Mohinur Ne'matulla qizi**

O'z DJTU lingvistika(fransuz tili) 2-kurs magistranti

+998903320634

[otabekyavqochov@gmail.com](mailto:otabekyavqochov@gmail.com)

### Annotatsiya:

Ushbu maqola fransuz tili fonetikasida intonnatsiyaning o'рни va muhim xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar muhokamasiga bag'ishlangan.

### Kalit so'zlar:

Intonatsiya , tovush , ritmik guruh, ohang , sintagma , urg'u

Intonatsiya - nutq jarayonida ovozning musiqiy va maromiy jihatlari , tovushlarning navbatma - navbat ko'tarilishi va tushishi hamda nutqning sintaktik ma'nolari(darak , so'roq , buyruq va undov )ni ifodalaydi. Fransuz tilida intonatsiya masalasi urg'u va ritmik guruhlar bilan chambarchas bog'liq. Umumiy ma'noda aytganda , fransuzcha jumlaning ohangdorligi ritmik guruh yoki sintagma ichida ovoz ohangining boshidan oxirgi bo'g'inigacha bosqichma-bosqich ko'tarilishi bilan tavsiflanadi.

Fransuz tildagi gaplarda oldingi ritmik guruhning yuqori notasidan keyingi ritmik guruh noturg'un bo'g'inining pastki notasiga o'tish jarayoni silliq kechadi. Keyingi ritmik guruh yoki sintagmaning urilgan bo'g'ini, qoida tariqasida, avvalgi ritmik guruh yoki sintagmaning ta'kidlangan bo'g'iniga nisbatan yuqori notada talaffuz qilinadi. Fransuz tilida tasdiq gap intonatsiyasi oxirgi ritmik guruhning so'nggi bo'g'inidagi ovozning kuchli pasayishi bilan ifodalanadi.

So'roq gapning tasdiq gap intonatsiyasidan farqi shundan iboratki, u ohang jihatidan yuqori va oxirida kuchli ko'tarilish bilan talaffuz qilinadi. Bunda so'roq gapda savol grammatik shakllar yoki so'roq so'zlari bilan emas, balki faqat intonatsiya bilan ifodalanganida, so'roq gapni tasdiq gapdan ajratib turadi.

Agar so'roq gapda savol inversiya bilan ifodalangan bo'lsa, ohang kuchayishi ham tugaydi. Ammo inversiya bilan gapning markazida ya'ni predikat(kesim)da ohang o'sishi bo'lishi mumkin va gap ohangining pasayishi bilan gapning oxiri talaffuz qilinishi mumkin. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki , intonatsiyaning bunday pasayishi hech qachon tasdiq gapdagi kabi kuchli bo'lmaydi. Umuman olganda , savol so'roq so'zlari bilan ifodalangan bo'lsa, ovoz ohangining oshishi so'roq so'zda (yoki bog'liq bo'lgan so'roq so'zi bilan ismda) kuchayadi va gapning oxirida esa kamayadi.

Undov gapda intonnatsiya g'azab, nafrat, hayrat, qo'rquv va hokazo kabi kuchli his-tuyg'ularni yoki ajablanish, hayratlanish va quvonch, baxt kabilarni ifodalsh uchun ishlatiladi.

Shuningdek , fransuz tilida intonatsiya gap ichida ko'tarilib, gap tugamaganligini bildiradi. Ovoz ritmik guruh oxirida, jumla ichida ko'tariladi. Masalan: Pas d'enfant, pas de voisin, pas d'électricité, pas une route.

Gapning tugal ma'nosini bildirish uchun esa gap oxirida ohangni pasaytirish maqsadga muvofiq. Masalan: Pas d'enfant, pas de voisin, pas d'électricité, pas une route qui la lie avec le reste du monde.

Fransuz tili fonetikasida intonnatsiyaning ko'plab o'ziga xos jihatlari ham mavjud. Intonnatsiya so'z turkumini gapdagi boshqa so'z turkumlari bilan birlashtiruvchi xususiyatga ega. Intonnatsiya ikki jumla yoki qo'shma gaplar segmentlari o'rtasida muvofiqlashtirish yoki bo'ysunish munosabatlarini o'rnatishga ham imkon berad. Xulosa qilib aytadigan bo'lsam , fransuz tili fonetikasida intonnatsiyaning tutgan o'rni va roli beqiyosdir. Nutqda ohangdorlikni , musiqiylikni oshirishda , tinglovchilarga sifatli tarzda axborotni yetkazishda va uni qabul qilishda intonnatsiyaning dolzarbligi yanada kuchayib boradi. Zero , fransuzcha sof talaffuz va intonnatsiya tufayli ushbu tilning nufuzi va o'rganilish qamrovi kundan - kunga ortib bormoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Попова И.Н. и др. Французский язык: учебник для I курса институтов и факультетов иностранных языков/ И.Н. Попова, Ж.А. Казакова, Г.М. Ковальчук.- 21-с изд., исправленное М.: ООО «Издательство «Нестор Академик», 2010.-576 с.
2. [www.ru.m.wikipedia.org](http://www.ru.m.wikipedia.org)
3. [apprendre.tv5monde.com](http://apprendre.tv5monde.com)
4. [intonationfrancaise.wordpress.com](http://intonationfrancaise.wordpress.com)